




2020- yil yanvar-dekabr


Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi

- 2020- yilning yanvar - dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHMDagi ulushi 75,3 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,7** birlikni tashkil qildi.
- 2020- yilning yanvar-dekabrida **4,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **99,2 %** ni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1 422 ta, sanoatda 963 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 116 ta, qurilishda 263 ta, yashash va ovqatlanishda 246 ta, tashish va saqlashda 86 ta tashkil etilgan.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	15453	18875	3422
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4668	4632	- 36
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	75,4	75,3	-0,1
Sanoat	%	30,2	29,5	-0,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,4	99,4	0,0
Investitsiya	%	60,7	72,2	11,5
Qurilish	%	92,1	91,1	-1,0
Chakana savdo	%	76,7	83,1	6,4
Xizmatlar	%	65,6	63,7	-1,9
Yuk tashish	%	94,6	94,4	0,2
Yuk aylanmasi	%	90,3	75,3	-15,0
Yo'lovchi tashish	%	93,5	95,7	2,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,8	97,2	1,4
Eksport	%	90,4	70,0	-20,4
Import	%	70,4	71,1	-0,7



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da

YaHM
75,3%

Savdo
83,1%

Sanoat
29,5%

Qurilish
91,1%

Investitsiya
72,2%

Export
70,0%

Xizmatlar
63,7%


Import
71,1%

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	farqi (+;-)
Xorazm viloyati	4 668	4 632	-36
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	897	765	-132
Xiva	412	369	- 43
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	272	313	41
Gurlan	356	377	21
Qo'shko'pir	315	436	121
Urganch	627	457	-170
Hazorasp	359	242	-117
Tuproqqal'a	-	121	121
Xonqa	362	334	-28
Xiva	296	324	28
Shovot	289	272	-17
Yangiariq	245	254	9
Yangibozor	238	368	130



2020- yil yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2020- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri - 16,5 %, Urganch tumani - 9,9 %, Qo'shko'pir tumani - 9,4 %, Gurlan tumani - 8,1 %, Xiva shahri - 8,0 %, Yangibozor tumani - 7,9 %, Xonqa tumani - 7,2 %, Xiva tumani - 7,0 % Bog'ot tumani - 6,8 % hissalariga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- y. yanvar-dekabr	2020- y. yanvar-dekabr	farq. (+;-)
Jami	4 668	4 632	-36
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	629	1 116	487
Sanoat	926	963	37
Qurilish	364	263	-101
Savdo	1 716	1 422	-294
Tashish va saqlash	140	86	-54
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	391	246	-145
Axborot va aloqa	52	80	28
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	87	94	7
Boshqa faoliyat turlari	363	362	-1



Ma'lumot uchun: 2020– yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	Farqi (+;-)
Urganch sh.	897	765	-132
Urganch tumani	627	457	-170
Qo'shko'pir tumani	315	436	121
Gurlan tumani	356	377	21
Xiva sh.	412	369	-43
Yangibozor tumani	238	368	130
Xonqa tumani	362	334	-28
Xiva tumani	296	324	28
Bog'ot tumani	272	313	41
Shovot tumani	289	272	-17

2020- yilning yanvar – dekabrda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida – 765 tani tashkil etdi.






2020- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subektlarining soni har **1000** aholiga nisbatan , 12,7 birlikni tashkil etdi.



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 28,3 birlik, Xiva shahrida 18,9 birlik, Yangibozor tumanida 15,2 birlik, Urganch tumanida, 14,3 birlik, Yangiariq tumanida, 13,3 birlik, Xiva tumanida 13,0 birlik va Tuproqqal'a tumanida 12,6 birlikni tashkil etgan. Hazorasp tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,0 birlikka to'g'ri keldi.

** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*




2020– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 28,3 birlik, Xiva shahrida 18,9 birlik, Yangibozor tumanida 15,2 birlik, Urganch tumanida 14,3 birlik, Yangiariq tumanida 13,3 birlik, Xiva tumanida 13,0 birlik, Tuproqqal'a tumanida esa 12,6 birlikni tashkil etdi.

* *Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori
ko'rsatkich

- Urganch shahri
- 28,3 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

- Tuproqqal'a tumani
- 12,6 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

- Hazorasp tumani
- 7,0 birlik.



Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini
pasayish dinamikasi, yanvar-dekabr
holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **75,3** % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-dekabrida **75,4** %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.

75,9%

2018- y.

75,4%


2019- y.

75,3%

2020- y.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Xorazm viloyati	29,5	91,1	63,7	72,2
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	32,6	86,8	31,9	45,7
Xiva	100,0	100,0	98,8	73,4
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	75,7	93,0	96,2	63,8
Gurlan	76,3	97,2	98,6	87,7
Qo'shko'pir	73,8	94,0	97,5	87,4
Urganch	75,7	96,4	87,4	84,6
Hazorasp	45,7	98,0	93,3	75,3
Tuproqqal'a	3,5	97,8	99,5	77,8
Xonqa	35,7	61,7	94,3	94,1
Xiva	100,0	94,1	97,2	62,9
Shovot	40,2	100,0	96,2	76,8
Yangiariq	53,8	97,6	97,6	93,1
Yangibozor	31,6	96,3	98,8	91,0

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Xiva sh. (100,0 %),
Xiva (100,0 %),
Urganch (75,7 %),
Bog'ot (75,7 %),
Gurlan (76,3 %) va
Qo'shko'pir (73,8 %) tumanlarida.


Qurilishda-

Xiva sh. (100,0 %),
Tuproqqal'a (97,8 %),
Shovot (100,0 %),
Hazorasp (98,0 %),
Yangiariq (97,6 %) va
Gurlan (97,2 %) tumanlarida.


Xizmatlarda-

Xiva sh. (98,8 %),
Yangibozor (98,8 %),
Gurlan (98,6 %),
Tuproqqal'a (99,5 %),
Qo'shko'pir (97,5 %) va
Yangiariq (97,6 %) tumanlarida.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 118,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 70,0 % ini tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva tumanida – 100,0 %, Yangiariq tumanida – 100,0 %, Gurlan tumanida – 100,0 %, Qo'shko'pir tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 99,0 %, Tuproqqal'a tumanida – 98,6 % ni, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – 33,3 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 213,1 million AQSh dollarini yoki umumiy importning 71,1 % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2020- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Gurlan tumanida – 100,0 %, Xiva shahrida – 100,0 %, Xiva tumanida – 100,0 %, Bog'ot tumanida – 98,7 %, Qo'shko'pir tumanida – 98,4 %, Hazorasp tumanida – 98,2 %, eng past ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida – 20,2 % ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subektlari tomonidan 2780,7 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2020- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (600,6 mlrd. so'm), Gurlan (304,1 mlrd. so'm), Urganch (258,5 mlrd. so'm), Bog'ot (246,2 mlrd. so'm) va Xiva (242,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor tumanida (86,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 29,5 foizni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva tumani (100,0%), Xiva shahri (100,0%), Gurlan tumani (76,3%), Urganch tumani (75,7%), Bog'ot tumani (75,7%), Qo'shko'pir tumani (73,8%), Yangiariq (53,8%), Hazorasp tumani (45,7%), Shovot tumani (40,2%), Xonqa tumani (35,7%) va Urganch shahri (32,6%) tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida (3,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 6572,3 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 83,1% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,5 foizni tashkil qildi.



2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (1 700,1 mlrd. so'm), Urganch tumani (793,1 mlrd. so'm), Hazorasp tumani (715,4 mlrd. so'm), Gurlan tumani (538,9 mlrd. so'm), Shovot tumani (461,3 mlrd. so'm) va Xonqa tumani (434,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 2763,3 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 91,1 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 97,5 foizni tashkil qildi.




2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (661,1 mlrd. so'm), Urganch (254,6 mlrd. so'm), Xiva (223,3 mlrd. so'm), Xiva shahri (210,0 mlrd. so'm), Shovot (193,7 mlrd.so'm), Yangibozor (184,6 mlrd.so'm) hamda Yangiariq (177,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2020- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 4185,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 63,7% ini tashkil qildi 2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,2% pasayish kuzatildi.



2020- yilning yanvar- dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi hajmi Urganch shahri (1048,9 mlrd. so'm), Urganch tumani (411,7 mlrd. so'm), Xonqa tumani (302,8 mlrd.so'm), Hazorasp tumani (299,1 mlrd.so'm), Gurlan tumani (288,2 mlrd. so'm), Bog'ot tumani (282,5 mlrd. so'm) va Qo'shko'pir tuman (273,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,4 foizni tashkil etdi. 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 foizni tashkil qildi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 75,3 foizni tashkil etgan bo'lib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 97,5 foizni tashkil qildi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 95,7 foizni tashkil etib, bu esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,3 foizga pasayishiga olib keldi.

2020- yil yanvar-dekabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,2 foizni tashkil etib, 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,8 foizga pasayish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil IV chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **821** ta respondentlar ishtirok etdi.



2020- yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,6 % (46 ta), sanoatda – 17,9 % (147 ta), qurilishda – 11,9 % (98 ta) , savdoda – 37,5 % (308 ta), xizmatlar sohasida – 27,1% (222 ta) ni tashkil etdi.


** oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.*



2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan, kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat savdo korxonalarida 1,5 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 3,7 punktga oshdi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida 2,0 punktga, savdoda 3,4 punktga, qurilish korxonalarida 4,2 punktga, sanoat sohasida 8,8 punktga, xizmatlar sohasida 9,1 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasi 2,3 punktga, savdoda 8,6 punktga, qurilish korxonalari 15,7 punktga, sanoat korxonalari 6,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari 14,3 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 7,5 punktga, savdoda 2,8 punktga, qurilishda 7,1 punktga, sanoat korxonalari 3,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari 4,3 punktga oshdi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillar IV choragida iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oy uchun baholanishi, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish


Savdo

Xizmatlar






2020- yilning IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **74** ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 15 ta (ishtirok etgan respondentlar umumiy sonining 20,3 % i), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17 ta (23.0 %), qurilish – 5 ta (6,8 %), savdo – 24 ta (32,4 %) va xizmatlarda – 13 ta (17,5 %) subyekt ishtirok etdi.




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2020- yilning IV choragi bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020– yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning IV choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 15,4 punktga, sanoat sohasida 6,1 punktga, savdoda 12,4 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalari 5,9 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillarning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



■ qulay ■ qoniqarli ■ qoniqarsiz

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning IV choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoat sohasida 3,3 punktga, qurilishda 60,0 punktga kamaydi, xizmatlar sohasida 49,2 punktga, savdoda 33,3 punktga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi korxonalarida esa 24,9 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar kuzatilmadi.



2019-2020- yilning IV choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

